



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(6)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 374 sahifa,  
22-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G. B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Abdullayeva N. Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

**Doniyorov S. M.** – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
<a href="#">Madaminova Gulzira Gulamkadirovna</a>	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni .....	14
<a href="#">Arolov Davronjon Davlataliyevich</a>	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish .....	19
<a href="#">Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi</a>	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
<a href="#">Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi</a>	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	26
<a href="#">Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi</a>	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
<a href="#">Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna</a>	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
<a href="#">Hojiyeva Nasiba Bahodirovna</a>	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
<a href="#">Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi</a>	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati .....	43
<a href="#">Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li</a>	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
<a href="#">Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi</a>	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari .....	54
<a href="#">Nusratova Mexriniso Baxshilloevna</a>	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
<a href="#">Pulatova Dilfuza Azamkulovna</a>	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
<a href="#">Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li</a>	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi .....	70
<a href="#">Qurbonova Sevara Suyunovna</a>	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari .....	74
<a href="#">Raxmatov Oxunjon Soibjonovich</a>	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
<a href="#">Saidova Feruza Akramovna</a>	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
<a href="#">Sidiqova Yulduz Sobirovna</a>	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
<a href="#">Toxirova Dilshoda Inom qizi</a>	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash .....	92
<a href="#">Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi</a>	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
<a href="#">Xaydarova Go‘zalxon</a>	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari .....	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari .....	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi .....	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi .....	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar .....	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish .....	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri .....	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi .....	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati...	196
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах .....	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications..... 218 <b>Allamurodov Elyor Tursun ugli</b>	218
	Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini..... 223 <b>Dilrabo Jumanova</b>	223
	Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar ..... 227 <b>Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li</b>	227
	Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar ..... 232 <b>Ravshanov Sanjar Tolibjonovich</b>	232
	Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 235 <b>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</b>	235
	Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi..... 239 <b>Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi</b>	239
	Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ... 244 <b>Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich</b>	244
	Ingliz tilini boshqa sohadagilarga o'qitishda grammatik jihatlar ..... 247 <b>Ataboyeva Guliruxsor Baxtiyor qizi</b>	247
	Methodological Foundations for Developing Environmental Education Through the Integration of Climate Change Education Into Biology Lessons in General Secondary Schools..... 250 <b>Abdurakhmanova Iqbolkhon Yulchiyevna</b>	250
	Sharq va G'arb mutafakkir olimlarining oila va farzand tarbiyasi borasidagi qarashlari ..... 255 <b>Berdiyeva Dilnoza A'zamovna</b>	255
	Ommaviy sport turlari yordamida ayollarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirishda ilmiy yondashuv ..... 258 <b>Charos Axmadova</b>	258
	STEAM integratsiyasi orqali maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish ..... 262 <b>Choriyor Maxmatraimov Eshmamatovich</b>	262
	Maktabgacha ta'lim kafedrasida bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion-metodik faoliyatga tayyorlashni transformatsion boshqarish texnologiyasi ..... 267 <b>Djalalov Baxromjan Begmurzayevich</b>	267
	Raqamli transformatsiya sharoitida yosh ota-onalarda yolg'izlik hissining namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik omillar ..... 272 <b>Erimmetova Nafisa Bahromovna</b>	272
	Zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi va uning strategiyalari ..... 279 <b>Haqberdiyeva Dinora Qobil qizi</b>	279
	Maktab direktorlarining moliyaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari..... 283 <b>Karimov Jaxongir Abdunabiyevich</b>	283
	Jadidlar merosiga e'tibor: tarixiy xotira va ma'naviy tiklanish omili..... 287 <b>Madaminova Shaxodat Shomurotovna</b>	287
	Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi o'rni va nutqni baholashdagi imkoniyatlari..... 293 <b>Mahmudova Maftuna Aktam qizi</b>	293
	Effectiveness of Simulator Technologies in Pilot Training: an Experimental Study ..... 297 <b>Maksudov Ilhomjon Turgunboy o'g'li</b>	297
	Yangi O'zbekistonda o'qituvchi maqomining huquqiy kafolatlari va pedagogik faoliyat samaradorligi..... 301 <b>Menlibayeva Azima Oralbayevna, Oralbayeva Aziza</b>	301
	Raqamli jamiyat sharoitida ong transformatsiyasining falsafiy jihatlari..... 305 <b>Muxitdin Nazarov</b>	305
	10-11-sinf o'quvchilarida o'qishdan yozuvga o'tish ko'nikmasini rivojlantirishning bosqichli metodik tizimi ... 310 <b>Nazarova Shoiraxon Abdumo'min qizi</b>	310
	Zamonaviy ta'lim paradigmasida "potensial" tushunchasi: shaxsning rivojlanishga qaratilgan ichki imkoniyatlari, bilim, ko'nikma, qobiliyat va kompetensiya..... 314 <b>Qurbonova Gulmira Alisher qizi</b>	314



Deffenbacherning driving anger scale metodi asosida haydovchilarning agressiv xulq-atvorining psixologik xususiyatlarini jinslar kesimida o'rganish .....	318
<b>Rahim Usmonov Raxmonali o'g'li</b>	
Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	323
<b>Sadoqat Sarmanova Shermahmatovna</b>	
Vizual axborot: paydo bo'lish tarixi, qo'llanish sohalari va ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	328
<b>To'g'izboyev Faxriddin Ulashovich</b>	
Fizika darslarini tashkil etishning mazmuni, mohiyati va didaktik tamoyillari.....	334
<b>Turabova Lobar Xusen qizi</b>	
Ekstrakorporal urug'lantirish orqali tug'ilgan bolalarda xotiraning rivojlanishi .....	339
<b>Usmonova Xusnora Ergashovna</b>	
Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional barqarorligini shakllantirish .....	344
<b>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</b>	
Milliy va xalq o'yinlari vositasida talabalarni sog'lomlashtirish.....	347
<b>Ahmedov Gayratjon Kosimovich</b>	
Деонтология медицинского персонала: этико-профессиональные ориентиры в условиях современной медицины.....	350
<b>Бабаджанова Гулчеҳра</b>	
Формирование творческого восприятия учащихся на уроках музыки.....	355
<b>Габдульманова Ильнура Минисламовна</b>	
Qizlar tarbiyasida maktab va mahalla hamkorligi monitoring tizimini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	358
<b>Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi</b>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish pedagogik muammo sifatida ....	362
<b>Ergashova Dilafro'z</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy karyerani shakllantirishning metodologik asoslari .....	365
<b>Hayitova Sarvinoz Mahmudovna, Ilmiy rahbar: Ashirova Sojida Baxromovna</b>	
Pedagogical and Methodological Foundations for Developing an Interactive Mobile Application for Teaching English to Preschool Children (Based on the Solobee Project) .....	368
<b>Khurshida Kuchkarova</b>	



# ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING IJTIMOY- PSIXOLOGIK ADAPTATSIYASI VA UNING STRATEGIYALARI

Haqberdiyeva Dinora Qobil qizi

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti,  
 Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası stajyor o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan birinchi bosqich talabalarining ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayonlari, tizimga ko'nikish davrida duch keladigan asosiy muammolari tahlil qilingan. Maqolada akademik, ijtimoiy-psixologik hamda fiziologik-maishiy moslashuv bosqichlari yoritilib, talabalarning koping-strategiyalari va desadaptatsiyani keltirib chiqaruvchi omillar, xususan, chekka hududlardan kelgan va oila qurgan talabalardagi subyektiv rollar to'qnashuvi diagnostika natijalari asosida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** adaptatsiya, ijtimoiy-psixologik moslashuv, talaba, o'quv faoliyati, desadaptatsiya, psixologik korreksiya.

**Abstract:** Based on empirical diagnostic results, this article analyzes the processes of socio-psychological adaptation among first-year students enrolled in higher education institutions, focusing on the primary challenges they encounter during their integration into the educational system. The study highlights the stages of academic, socio-psychological, and physiological-domestic adaptation. Furthermore, it examines students' coping strategies and the factors contributing to maladaptation, specifically elucidating the dynamics of subjective role conflict among married students and those originating from remote regions.

**Key words:** adaptation, socio-psychological adaptation, student, academic activity, maladaptation, psychological correction.

**Аннотация:** В данной статье на основе эмпирических результатов диагностики анализируются процессы социально-психологической адаптации студентов первого курса, зачисленных в высшие учебные заведения, а также рассматриваются ключевые проблемы, с которыми они сталкиваются в период интеграции в образовательную среду. В работе последовательно освещаются этапы академической, социально-психологической и физиолого-бытовой адаптации. Изучены копинг-стратегии студентов и факторы, провоцирующие дезадаптацию; в частности, раскрывается специфика субъективного ролевого конфликта у студентов из отдаленных регионов и студентов, состоящих в браке.

**Ключевые слова:** адаптация, социально-психологическая адаптация, студент, учебная деятельность, дезадаптация, психологическая коррекция.

## KIRISH

Oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish har bir maktab bitiruvchisi bo'lgan yosh yigit-qiz dunyoqarashi va hayotidagi eng muhim burilish nuqtalaridan biri hisoblanadi. Bu davrda nafaqat o'quv faoliyatining shakli va mazmuni, balki shaxsning ijtimoiy statusi, o'rab turgan mikromuhiti va munosabatlar tizimi ham tubdan o'zgaradi. Psixologiya fanida adaptatsiya (moslashuv) muammosi shaxs shon-sharafi va uning yangi ijtimoiy rollar hamda talablarga javob berish salohiyatini belgilovchi bosh mezon sifatida o'rganiladi.

Oliy ta'limga qabul qilingan birinchi bosqich talabalarining oliygoh muhitiga muvaffaqiyatli moslashishi ularning kelajakda yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishlarida, akademik ko'rsatkichlarining barqarorligida va shaxsiy inqirozlarni talafotsiz yengib o'tishlarida poydevor vazifasini o'taydi. Biroq amaliyot va pedagogik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab talabalar o'qishning dastlabki oylarida kuchli psixologik bosim, motivatsiya pasayishi va ijtimoiy guruhlariga kirishishda jiddiy qiyinchiliklarga (desadaptatsiyaga) duch kelmoqdalar [1: 78-b.].

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, ruhan barqaror va barkamol shaxs qilib tarbiyalash bugungi kun pedagogik psixologiyasining dolzarb vazifalaridan biridir. Talabalik davrining dastlabki bosqichidagi moslashuv qonuniyatlarini o'rganish ushbu islohotlarning metodologik asosini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI**

Psixologiya fanida adaptatsiya muammosi turli maktablar va olimlar tomonidan keng tahlil qilingan. Biologik va fizio-psixologik yondashuvda (G. Selye, L. Kitaev-Smyk) moslashuv stress omillariga qarshi organizmning umumiy himoya reaksiyasi sifatida ko'riladi. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan esa adaptatsiya - bu shaxs va ijtimoiy guruh o'rtasidagi munosabatlarning mutanosibligi, shaxsning o'z ijtimoiy muhitidagi konstruktiv faoliyatidir [2; 112-b.].

Bugungi kunda xalqaro va mahalliy olimlar adaptatsiya jarayonini shunchaki tashqi muhitga moslashish deb emas, balki shaxsning o'z ichki resurslarini (kognitiv, emotsional va xulq-atvor) safarbar qilishi deb qarashmoqda. Xususan, V.A. Yadovning shaxsning ijtimoiy rollar nazariyasiga ko'ra, talaba yangi muhitda o'zining "Men" konsepsiyasini qaytadan shakllantiradi. Bu jarayonda subyekt nafaqat jamiyat talablariga bo'ysunadi, balki o'z ehtiyojlarini ham oliygoh muhitiga moslashtiradi.

**Adaptatsiyaning subyektiv va rol tuzilmasi**

Zamonaviy yondashuvlarga ko'ra (masalan, K. Rojersning "self-actualization" nazariyasi), adaptatsiya jarayoni talabaning o'zini o'zi anglash va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdagi ichki ziddiyatlar bilan uzviy bog'liqdir. Talabalik davrida yuz beradigan "status o'zgarishi" (maktab o'quvchisidan oliygoh talabasiga o'tish) shaxsda kognitiv dissonansni keltirib chiqarishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talaba o'zining ijtimoiy rolini qanchalik tez va aniq idrok etsa (o'zini "bo'lajak mutaxassis" sifatida his qilsa), uning akademik moslashuvi shunchalik tez kechadi.

- 1. Texnologik transformatsiya va moslashuv:** Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim muhiti ham adaptatsiyaga kuchli ta'sir qiladi. Masofaviy ta'lim platformalari, elektron kutubxonalar va sun'iy intellekt vositalari talabadan yuqori darajadagi axborot savodxonligini talab etadi. Bu "texnologik adaptatsiya" tushunchasini ilmiy muomalaga olib kirishni taqozo etmoqda. Agar talaba texnik vositalardan foydalanishda qiynalsa, bu uning akademik natijalariga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi va natijada desadaptatsiyaga olib keladi. Raqamli muhitdagi "axborot ortiqchaligi" talabalarda yangi turdagi stress shakllarini - "texnostress"ni keltirib chiqarmoqda.
- 2. Etnopsixologik va hududiy omillar:** O'zbekistonlik olimlar (masalan, Sh.R. Barotov) tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, milliy mentalitet, oilaviy qadriyatlar va hududiy farqlar ham adaptatsiya jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, chekka hududlardan kelgan talabalarda "kulturashok" (madaniy zarba) fenomeni kuzatiladi. Bu holat yirik shahar va megapolis muhitiga tushib qolgan yoshlarda o'ziga xos ijtimoiy izolyatsiya yoki aksincha, ijtimoiy faollikning haddan tashqari oshib ketishi bilan namoyon bo'ladi.
- 3. Oliy ta'lim muhitidagi tizimli moslashuv tarkibi:** Respublikamiz psixolog olimlaridan E. G'oziyev o'z tadqiqotlarida talabalik davrining o'ziga xos inqirozlari va talaba shaxsining shakllanish qonuniyatlarini tahlil qilib, oliygoh muhitidagi moslashish faqatgina ma'ruzalarni o'zlashtirish emas, balki mustaqil fikrlash poydevorining qurilishidir, deb ta'kidlaydi [3; 54-b.]. Zamonaviy oliy ta'lim psixologiyasida talabalar adaptatsiyasi ko'p qirrali tizimli jarayon bo'lib, u quyidagi uchta asosiy tarkibiy qismdan iborat:
- 4. Akademik moslashuv:** Maktabdagi passiv o'qitish tizimidan oliygohdagi mustaqil ta'lim platformasiga o'tish. Oliyoghdagi jarayon markaziga talabaning shaxsan o'zi chiqadi. Akademik moslashuv - bu tashqi nazoratdan ichki o'z-o'zini boshqarishga (samoregulyatsiyaga) o'tish davridir.
- 5. Ijtimoiy-psixologik moslashuv:** Yangi akademik guruh, kursdoshlar va professor-o'qituvchilar jamoasi bilan konstruktiv munosabat o'rnatish [4; 92-b.]. Bu bosqichda talaba "subyekt-subyekt" darajasidagi muloqotga tayyor bo'lishi lozim.
- 6. Fiziologik va maishiy moslashuv:** Yashash joyining o'zgarishi (yotoqxona yoki ijara uyi), kun tartibi va ovqatlanish rejimining almashishi bilan bog'liq fundamental bosqich. Bu o'zgarishlar sensor yuklamaga (shovqin, begona odamlar harakati) va uyqu rejimining buzilishiga olib kelishi mumkin, bu esa bevosita kognitiv funksiyalarning (diqqat, xotira, mantiqiy fikrlash) pasayishiga ta'sir ko'rsatadi.
- 7. Desadaptatsiya fenomenining psixologik determinatlari:** Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, desadaptatsiya - bu shaxsning yangi ijtimoiy talablarga javob bera olmaslik holati bo'lib, u o'ziga xos psixologik himoya mexanizmlarini (inkor etish, proyeksiya, regressiya) ishga tushiradi. Agar oliy ta'lim muassasasi ushbu inqirozli davrda talabaga psixologik yordam ko'rsatmasa, bu jarayon surunkali xarakter olib, talabaning oliygohni tashlab ketishiga yoki o'qishga bo'lgan motivatsiyaning butunlay so'nishiga olib keladi. Shuning uchun zamonaviy oliygohlar "psixologik barqarorlik" va "koping-strategiyalar"ni shakllantirishni o'quv dasturlariga singdirishi zarur.



### Talabalar adaptatsiyasida xorijiy tajribalar

Bugungi kunda xalqaro oliy ta'lim tizimida "Freshman Year Experience" (Birinchi kurs tajribasi) deb nomlanuvchi dasturlar keng ommalashgan. Masalan, AQSh universitetlarida talabalarni adaptatsiya qilish jarayoni o'quv yili boshlanishidan 2 hafta oldin "Orientation Week" (Tanishuv haftaligi) doirasida tashkil etiladi. Yevropa mamlakatlari (Germaniya, Finlandiya) universitetlarida esa "Mentoring Systems" (tyutorlik va murabbiylik tizimi) orqali har bir yangi talabaga tajribali yuqori kurs talabasi birlashtiriladi.

Xorijiy tadqiqotlarda (A. Tinto, 2017) ta'kidlanishicha, talabalarning oliygohni tashlab ketishining asosiy sababi - akademik qiyinchiliklar emas, balki "ijtimoiy izolyatsiya"dir. Shu sababli xorijiy tajribada talabalarni ijtimoiy guruhlarga integratsiya qilish, universitetning an'analari va madaniy qadriyatlarini bilan tanishtirishga alohida urg'u beriladi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga ushbu tajribani adaptatsiya qilish, xususan, "talabalar klublari" va "tengdosh-tengdoshga" psixologik qo'llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish juda muhimdir.

Adaptatsiyani boshqarishning psixologik korreksiya vositalari: Talabalarda yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik desadaptatsiyani bartaraf etishda zamonaviy psixologik korreksiya vositalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarda (N.V. Grishina, 2021) quyidagi yondashuvlar eng samarali deb tan olingan:

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Talabalarning yangi ijtimoiy muhitga moslashish mexanizmlari va ichki salohiyatini aniqlash maqsadida tadqiqotda kompleks metodikalar tizimidan foydalanildi. Shaxsning stressli vaziyatlarni nazorat qilish va boshqarishga bo'lgan ongli intilishlarini aniqlashda R. Lazarus va S. Folkman konsepsiyasiga asoslangan koping-strategiyalar tahlili [5: 204-b.] hamda oliy ta'lim tizimida talabalarning moslashuv darajalarini diagnostika qilishda K. Rogers va R. Dymondning ijtimoiy-psixologik adaptatsiya tashxisi metodikasi [6: 45-b.] qo'llanildi.

Ushbu metodologik asoslarga tayanib, talabalarning moslashuv strategiyalari uchta asosiy model bo'yicha tahlil qilindi:

- Konstruktiv strategiya:** Muammoni ongli tarzda tahlil qilish, reja asosida harakat qilish, muassasa professor-o'qituvchilari va psixologidan ijtimoiy-psixologik yordam so'rash.
- Kognitiv-passiv strategiya:** Vaziyatga moslashish, biroq subyektiv faollik ko'rsatmaslik, voqealar rivojini shunchaki kuzatish.
- Destruktiv strategiya:** Muammodan qochish, darslarni sababsiz qoldirish, guruhdan ajralish va virtual olamga haddan tashqari berilish.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan amaliy diagnostika va kuzatuvlar (n = 114 nafar birinchi kurs talabalari) talabalarning yangi muhitda o'zini namoyon qilish dinamikasi va psixologik holatlarini muayyan bosqichlarga ajratish imkonini berdi.

1-jadval: Talabalarning adaptatsiya jarayonidagi ruhiy holati va xulq-atvor modellari dinamikasi

Moslashuv bosqichlari	Talabadagi psixologik holat	Dominant xulq-atvor modeli
<b>1. Eyforiya davri (Sentyabr)</b>	Yuqori kayfiyat, faxr tuyg'usi, talabalik maqomidan mamnunlik.	Oliyogoh hayotiga yuqori ijobiy qiziqish, ijtimoiy faollik.
<b>2. Psixologik tanglik (Oktyabr - Noyabr)</b>	Charchoq, axborot yuklamasidan stress, nazorat shakllaridan qo'rquv.	Ayrim darslarda passivlik, guruh ichida ilk nizolarning yuzaga kelishi.
<b>3. Barqarorlashuv (Dekabr - Yanvar)</b>	Tizimni to'liq anglash, moslashish yoki desadaptatsiya chegarasi.	Konstruktiv koping (muvaqqatli) yoki darslardan qochish (desadaptatsiya).

Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, ayniqsa chekka hududlardan kelgan hamda oila qurgan talabalar guruhida adaptatsiya inqirozi ancha chuqur va murakkab kechadi. Oila qurgan yosh talabalarda o'ziga xos subyektiv rollar to'qnashuvi yuzaga kelishi aniqlandi: akademik majburiyatlar (dars tayyorlash, reytinglar) va oilaviy majburiyatlar (kelinlik, oila oldidagi mas'uliyat) o'rtasidagi muvozanatni topa olmaslik ularda emotsional to'yinish (burnout) hamda surunkali charchoq holatlarini keltirib chiqaradi [7: 118-b.]. Bu esa ushbu xavf guruhidagi talabalar bilan individual psixologik korreksiya ishlarini olib borishni taqozo etadi.

Tadqiqot jarayonida o'tkazilgan so'rovnomalar shuni ko'rsatdiki, chekka hududlardan kelgan talabalarning 35 foizida "yolg'izlik" hissi yuqori darajada. Bu nafaqat yashash joyining o'zgarishi, balki "dialektal va madaniy farqlar" (sheva, urf-odatlar) bilan ham bog'liq. Ular o'zlarini guruhdagi "begona" deb hisoblashlari, muloqotda tortinchoqlik ko'rsatishlari kuzatildi. Oila qurgan talabalar (ayniqsa, qizlar) guruhida esa "rol ziddiyati" (o'quvchi, kelin/ona) muammosi adaptatsiyani eng ko'p qiyinlashtiruvchi omil bo'lib chiqdi. Ular dars vaqtida uy tash-

vishlari haqida ko'proq o'ylashlari, bu esa diqqatning tarqoqligiga va akademik o'zlashtirishning pastligiga olib kelishi tahlil qilindi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, talabalarning oliy ta'lim muhitiga ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi faqatgina shaxsning subyektiv muammosi bo'lmay, balki oliy ta'lim muassasasi tomonidan tizimli yondashuvni talab etadigan pedagogik jarayondir. Adaptatsiya jarayoni - bu shaxsning yangi ijtimoiy rollarga kirishuvi, akademik talablarga moslashuvi va eng muhimi, o'zining individual psixologik resurslarini oliygohning dinamik muhitiga muvofiqlash-tirishidir.

Tadqiqotimiz tahlillari shuni ko'rsatadiki, talabalarda desadaptatsiya va emotsional to'yinish (burnout) holatlarining oldini olish hamda ta'lim sifatini oshirish uchun oliy ta'lim muassasalarida quyidagi amaliy chora-tadbirlar majmuasini tizimli ravishda amalga oshirish taqozo etiladi.

#### **"Adaptatsiya haftaliklari" dasturini joriy etish va metodik ta'minlash**

O'quv yilining dastlabki oyi talabani butun faoliyat davridagi akademik muvaffaqiyatini belgilab beruvchi "kritik davr" hisoblanadi. Shu bois, birinchi bosqich talabari uchun "Universitetga xush kelibsiz" shiori ostida adaptatsiya haftaliklarini tashkil etish zarur. Ushbu dastur doirasida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

**Taym-menejment (vaqtni boshqarish):** Talabalarga dars, mustaqil ta'lim va dam olish vaqtlarini oqilona taqsimlashni o'rgatish.

**Kredit-modul tizimi:** Talabalarni mustaqil ta'lim platformalaridan foydalanish, reyting tizimini tushunish va akademik qarzlilar bilan bog'liq vaziyatlarda qanday yo'l tutish bo'yicha batafsil yo'riqnomalar bilan ta'minlash.

**Motivatsion treninglar:** Oliy ta'limdagi akademik erkinlikni shaxsiy rivojlanish uchun imkoniyat sifatida qabul qilishga yo'naltirilgan seminarlar.

#### **Tizimli psixologik xizmat ko'rsatish faoliyatini innovatsion rivojlantirish**

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar adaptatsiyasini samarali boshqarish psixologik xizmatning o'z vaqtida va sifatli tashkil etilishiga bevosita bog'liq. Bizning tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, desadaptatsiya darajasi oliygohda psixologik yordam qanchalik ochiq va mavjudligiga qarab turlicha bo'ladi.

Psixologik xizmatning asosiy vazifalarini quyidagi uch yo'nalishda rivojlantirish lozim:

**Preventiv diagnostika:** O'quv yilining ilk haftalarida talabalarning psixologik portretini shakllantirish va "xavf guruhi"ga kiruvchi (oilali, chekka hududdan kelgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, yotoqxonada yashovchi) talabalarni aniqlash.

**Korreksion treninglar:** "Stressni boshqarish", "Mustaqil ta'limda motivatsiyani ushlab turish", "Konfliktologiya asoslari" kabi amaliy mashg'ulotlarni doimiy ravishda o'tkazish.

**Metodik yordam va raqamlashtirish:** Tyutorlar uchun talabalar bilan ishlashda psixologik-pedagogik metodikalarni o'rgatish. Shuningdek, raqamli texnologiyalar asrida psixologik xizmatni "onlayn platformalar" (anonim maslahat botlari, mobil ilovalar) orqali tashkil etish. Bu talabaga o'zini qulay his qilish va muammosi haqida ochiq gapirish imkonini beradi.

#### **Tyutorlik va mentorlik korpusini kuchaytirish**

Akademik guruh tyutorlarining talabalar bilan shaxsiy-emotsional muloqot madaniyatini oshirish - guruh ichida sog'lom psixologik iqlimni yaratishning garovidir. Tyutorlar nafaqat o'quv jarayonini boshqaruvchi, balki talabani "pedagogik hamrohi" bo'lishi kerak. Bu jarayonda:

Tyutorlarni nizolarni boshqarish va guruh ichidagi mikro-muhitni barqarorlashtirish metodikalari bilan qurollantirish.

Guruhlarda o'zaro qo'llab-quvvatlash madaniyatini shakllantirish bo'yicha tadbirlarni muntazam o'tkazish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Barotov Sh.R. Psixologik xizmat asoslari. - Toshkent: "Zamin nashr", 2021. - 280 b.
2. Налчаджян А.А. Психологическая адаптация: механизмы и стратегии. - Москва: Эксмо, 2010. - 368 с.
3. G'oziyev E.G'. Oliy maktab psixologiyasi. - Toshkent: "O'qituvchi", 1997. - 144 b.
4. Karshibaeva G.A. Talabalarning oliy ta'lim muhitiga ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi muammolari // Psixologiya jurnali. - Toshkent, 2023. - №2. - B. 90-95.
5. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, appraisal, and coping. - New York: Springer Publishing Company, 1984. - 445 p.
6. Роджерс К., Раймонд Р. Диагностика социально-психологической адаптации / Практическая психодиагностика. - Самара: Бахрах-М, 2001. - С. 43-51.
7. Shomurodov F.B. Yosh oilalarda er-xotinlik munosabatlarining shakllanishi va oilaviy adaptatsiya jarayonlari // O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari. - Toshkent, 2024. - №4. - B. 115-120.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(6)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.